

## XAYRIDDIN SULTON TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO‘QIMA NISBATI HAQIDA

Temirova Farida To‘lqin qizi

*JDPU magistranti*

Ushbu maqolamizda yozuvchi Xayriddin Sultonovning tarixiy haqiqat va badiiy talqin haqidagi fikrlari bilan tanishamiz.

Tarixchi olim Haydarbek Bobobekovning “O‘tmish va tasvir” sarlavhali maqolasi e‘lon qilinib, unda, jumladan, Xayriddin Sultonov qalamimga mansub “Bunchalar shirinsan, achchiq hayot!” nomli tarixiy etyud haqida ham ba‘zi fikrlar bildirilgan edi.

Maqola chiqqan paytda yozuvchi safarda edi, shu bois u bilan keyinroq tanishdi va kech bo‘lsa-da, ayrim fikr-mulohazalarni aytib o‘tishni lozim topdi.

Bizning nazarimizda, “muhtaram tarixchimiz bu o‘rinda ilmiy dissertatsiya yoki monografiyani emas, balki badiiy asarni tahlil qilayotganliklarini unutib qo‘ygandek tuyuldilar.

Chunki ilmiy asardan farqli o‘laroq, tarixiy mavzudagi badiiy asarda muallif muayyan voqea-hodisalar sanasini asar g‘oyasi, badiiy muddao talabiga ko‘ra ma‘lum darajada o‘zgartirishi mumkin. Jahon adabiyotida buni isbot etadigan misollar ko‘p. To‘g‘ri, goho tarixiy asarlar qat‘iy xronika tartibida ham bitilishi mumkin. Bunga o‘zbek adabiyotida Mirkarim Osimning sodda va go‘zal qissalari yorqin misol bo‘la oladi. Lekin adabiy tajribada boyagi birinchi yo‘ldan ham ko‘p foydalaniladi”[4;25]. Uzoqqa borib o‘tirmay, o‘zimizning adabiyotdan — tarixiy mavzudagi yaxshi asarlarimizning ikkitasidan dalil keltirib qoya qolamiz.

“M.Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojiasi va O. Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida markaziy konflikt asosini Ulug‘bek bilan Xoja Ahror o‘rtasidagi ziddiyat va to‘qnashuvlar tashkil etadi. Ba‘zi olimlar bu o‘rinda tarixiy haqiqat prinsipi buzilgan deb chiqqanlarida tarixchi olimimiz professor B. Ahmedov ularga javoban shunday fikr bildirgan edi: “Bu yerda Shayxzodani ham, O.Yoqubovni ham ayblash o‘rinsiz. Ularni “yo‘ldan urgan” ba‘zi olimlar bo‘ldi. Ular (A.Yu.Yakubovskiy, A.Mirzaev, M.Rajabov, Ya.G‘ulomov, R.Nabiev) naqshbandiylikka va Xoja Ubaydullo Ahror shaxsiga bir tomonlama subyektiv yondashdilar...”[3;54]. Tarixiy haqiqat shundan iboratki, Xoja Ahrorning Ulug‘bekning fojiali o‘limiga aloqasi yo‘q.

U Samarqandga Ulug‘bek o‘ldirilganidan ikki yil o‘tganidan keyin kelib ketgan». Shuningdek, olimning ta‘kidlashicha, Ulug‘bek rasadxonasi ham oradan ellik yil o‘tgach buzilgan, allomaning shogirdi Ali Qushchi esa uning vafotidan keyin darhol emas, balki



yigirma bir yildan so'ng Turkiyaga ko'chib ketgan ("Tarix haqiqat oynasi", "Kamalak" to'plami, "Yosh gvardiya", 1989, 45-bet).

Ma'lumki, romanda bu faktlar biroz boshqacha tarzda, ya'ni Ulug'bek o'ldirilgach, oradan ko'p o'tmay sodir bo'lgan, deya talqin qilinadi. Demak, shunga asosan Shayxzoda va O.Yoqubovni tarixiy haqiqat printsiptini bilmaslikda yoki uni buzishda ayblash mumkinmi? Bizningcha, yo'q. chunki badiiy asarda yozuvchi tarixiy faktning o'zini "asliga to'g'ri" holda quruq qayd etish bilan cheklanmaydi, aksincha, tarixiy fakt mohiyatini tahlil qiladi.

Drama va romanda Ulug'bek hayotiga aloqador ayrim faktlar aynan emas, asarning badiiy konsepsiyasiga mos tarzda talqin etiladi va men bunga mualliflar haqli, deb o'ylayman. Takrorlayman: asosiy gap badiiy tasvirning tarixiy faktga emas, balki tarixiy fakt mohiyatiga mos kelishidadir.

Yozuvchi Primqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" tarixiy romani ham shu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, unda bosh qahramon hayoti bilan bog'liq Movarounnaxr va Xurosonda XV asr oxiri va XVI asr boshlarida sodir bo'lgan qator tarixiy voqealar xronologik tartibda ko'rsatiladi. Bunday voqealar rivoji Boburning murakkab hayoti va ijod yo'lini ko'rsatish bilan chambarchas bog'liqdir.

Romanning imkoniyat doirasi ancha kengligi sababli unda Boburning taxtga o'tirgan davridan, to umrining oxirigacha bo'lgan davr bosqichma-bosqich tasvirlanadi. Romanda Boburning shaxsiy kechinmalari, insoniy ezgu niyatlari va siyosiy qarashlari o'zining chuqur ifodasini topadi. X. Sultonov esa qissa janrining imkoniyatlaridan kelib chiqib, "Saodat sohili"ga Bobur umrining so'ngi 6 oyini asos qilib oladi. Roman ham, qissa ham Boburning o'limi voqeasi bilan yakun topadi.

Har ikkala asarda ham o'xshash tarixiy faktlar anchagina. Biroq ularning badiiy talqini turlicha Boburning keyingi paytda betob bo'lib qolishi, uni Yusufiy ismli tabib davolaganligi va Bobur qalbida kechgan ruhiy jarayonlar ikki asarda ham o'zining yaxshi ifodasini topgan. Har ikkala asarda ham Bobur olim sifatida qiyofasi, murakkab xarakteri tasviri ilm ahllari bilan munosabati orqali, chunonchi: "Yulduzli tunlar"da Bobur va Xondamir, "Saodat sohillari"da Bobur va Hofiz Ko'ykiy o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatlarda o'z aksini topadi. Romanda ham, qissada ham tasvirlanishicha, Bobur olimlar bilan bo'lgan munozaralarda o'z qalbidagi muammolarning yechimini topganday bo'ladi.

Shu sababdan ularga izzat-ikrom ko'rsatadi. Qissada ruhiyat tahlili romandagiga nisbatan ancha ustun ekanligini ko'ramiz. Qissada adib qahramonning insoniy siymosini, ona yurt hajrida chekkan iztiroblarini badiiy lavhalarda yanada ishonchli va haqqoniy yoritib beradi.

Muallif asarda murakkab muhit va chigal vaziyatdagi qahramonning ruhiy holatini, uni bunday ishlarga boshlagan omillarni, eng muhim, Bobur ruhiyatidagi ziddiyatli holatlarni ancha chuqur va ta'sirchan bayon etadi.



Dastlab asar fazilatlarini haqida adabiyotshunos Sanjar Sodiq quyidagi mulohazalarni bildirgan edi: “X.Sultonov deyarli butun ijodida, xususan, “Saodat sohili” asarida Boboqul degan kimsaning bir vaqtlar Bobur bilan o‘z yurtidan ketganligi, endi esa o‘zga o‘lka bozorlaridan jinni bo‘lib, qo‘shiq aytib yurganligi ko‘rsatilgan. Uni qidirib safarga chiqqan Binoqul ismli o‘g‘li esa yo‘lda halok bo‘ladi. bu voqega hech bir izoh berilmaydi. Obrazli ko‘rsatilgan mazkur voqea ustida jiddiy o‘ylab ko‘rilgandagina, kitobxon uning vositasida Boburning o‘z yurtidan ketishi faqat o‘zi uchungina emas, balki boshqa ko‘plab kishilar uchun ham dahshatli qismat bo‘lganligini anglab etadi.

X.Sultonov katta iste'dod sohibi ekanligidan dalolat beradigan bunday obrazli tasvir, afsuski, hozir yaratilayotgan ko‘p asarlarimizda etishmayapti”[5;4].

Xulosa. Yuqorida nomi zikr etilib, biroz tahlil etilgan va shu kabi tarixiy mavzudagi qissalarning ko‘plab yaratilayotganligi ijobiy holdir. Chunki bugungi avlodni o‘z o‘tmishidan xabardor etish, ularda ajdodlarimizga bo‘lgan faxr tuyg‘usini uyg‘otish va yurt mustaqilligini mustahkamlashning asosiy omillaridan biridir.

#### ADABIYOTLAR:

1. www.ziyo.uz
2. Rizayev Sh. “Haqiqat va nafosat jamoli”
3. Sultonov X. “Haqiqat jamoli”-T.: Mashhur-press, 2019.
4. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1989 yil, 24-fevral soni
5. Ulug‘ov.A. 2023. “Xayriddin Sulton asarlarida hayot hodisalarining aks ettirilishi”.O‘zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik2(2): 4-24.
6. X.Sultonov. “Boburning tushlari”. G.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent 1993 y.
7. N. Rahimjonov, Q. Ko‘baev. “Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi”. Adolat nashriyoti. Toshkent 2005 y.

